



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BOLALAR ADABIYOTIDA FOLKLORIZMDAN FOYDALANISH MAHORATI

Nosirova Dilfuza

*Maktabgacha va boshlang`ich ta'lif metodikasi kafedrasi katta
o`qituvchisi, Guliston Davlat Pedagogika instituti*

Orziqulova Zaynura Muhammadqul qizi

*Guliston Davlat Pedagogika instituti 1-kurs magistranti
orziqulovazaynura4@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish mahorati o‘rganilgan. Maqola, bolalar adabiyotida folklor unsurlarining qo‘llanilishining tarbiyaviy, estetik va madaniy ahamiyatini yoritadi. Folklor, o‘zining xalq an‘analari, qadriyatlari va axloqiy saboqlari bilan bolalar adabiyotining muhim qismiga aylangan. Maqolada folklorizmning bolalar asarlarida qanday ishlatilishi, ertaklar, misralar, maqollar, qahramonlar va xalq qo‘shiqlari kabi folklor elementlarining tarbiyaviy vazifalari, shuningdek, zamonaviy bolalar adabiyotida folklorning modernizatsiyasi va multimedia vositalari orqali qanday taqdim etilayotgani tahlil qilinadi. Folklor orqali bolalar o‘z milliy madaniyati va tarixini o‘rganib, axloqiy va estetik qadr-qimmatlarni singdiradilar. Maqola, folklorizmning bolalar adabiyotida nafaqat estetik jihatdan, balki milliy identifikatsiya va dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, mumtoz adabiyot, bolalar folklori, badiiy asar, topishmoq, tez aytish, maqol, ertak, doston, alla.

Kirish. Bolalar adabiyoti - yosh avlodni tarbiyalash, ularning estetik didini shakllantirish, fikr va tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, milliy qadriyatlarni ularga yetkazish vositasi bo‘lib, uning tarkibida folklorning muhim o‘rni bor. Folklorizm, ya’ni folklor unsurlarining san‘atchilikda, xususan adabiyotda qo‘llanilishi, bu soha uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Folklor — xalqning og‘zaki ijodining namunalaridir, unda xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashlari aks etadi. Bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish nafaqat hikoyalar, ertaklar va rivoyatlar orqali bolalar dunyoqarashini shakllantirish, balki ularning milliy an‘analarga bo‘lgan hurmatini oshirishga ham xizmat qiladi [1].

Folklorizm — bu folklor unsurlarining adabiyot, san‘at yoki boshqa madaniy ifodalarda yangidan yuzaga kelishi yoki takrorlanishidir. Bolalar adabiyotida folklorizmni qo‘llash, asosan, bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda adabiyotning didaktik, tarbiyaviy va estetik vazifalariga amal qilgan holda, folklor elementi yordamida bolalar dunyoqarashi rivojlantiriladi. Bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish, bolalarga o‘z milliy merosini tanitish, ularning etnik va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi [2].





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo‘sishqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi bilan yozma adabiyotdan ajralib turadi.

Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba’zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlari ham alla, qo‘sishq va ovunmachoqlar to‘qiydilar. Bularning hammasi bir bo‘lib faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi. Bolalar xalq og‘zaki ijodining pedagogika bilan bog‘lanishi alladan boshlanadi [3].

Alla - qo‘sishq

Alladir hayotda sevimli qo‘sishq,

Onalar kuylaydi yurakdan jo‘sib.

Bolasin umriga umrlar tilar,A

Allaga dildagi niyatim qo‘sib.

Bu qanday sinoat, men bilolmadim,

Ta’rifiga so‘zlar topa olmadim

Allalar eshitib, o‘sib-ulg‘aydim,

Dard cheksam, allani tinglab sog‘aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so‘zi, hammaning allaga, onaga iqrornomasi, ta’zimi. Yoshi ulug‘mi, kichikmi alla eshitgan, alla og‘ushida, ta’sirida o‘sgan, ulg‘aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo‘lgan.

Alla xalq og‘zaki ijodining eng oliv namunasi hisoblanadi. Allada onaning o‘yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebranadi, orom oladi, o‘zini-o‘zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi. E’tibor bering:

Tol beshikni tebratib,

Ona aytar qo‘sishg‘in.

Qo‘sishq bilan tebratar

Dunyoning tol beshigin.

Bu beshikda ulg‘ayar

Necha ming, millionlar.

Ona mehri ziyosi

Yuraklarga yo‘l olar.

Bu beshikda tinglashar

Mayin-mayin allalar.

Uchib o‘tgan el bilan

Olam bo‘ylab taralar.

Tol beshikni tebratib,

Ona aytar qo‘sishg‘in.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Qo‘sish bilan tebratar
Dunyoning tol beshigin.

Alla qadimiy xalq qo‘sishig‘i. Alla va beshik xamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino, - ...Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi, - deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog‘ini o‘zi suyugan, e’zozlagan har narsadan yuqori qo‘yib alla aytadi:

Sen bog‘imning bahori,
Sen umrimning nahori,
Sen qalbimning ohori,
Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo‘ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo‘sib jo‘sib kuylaydi. Bola birinchi navbatda sog‘lom fikrli, el-yurt o‘g‘loni bo‘lib kamol topishi kerak. Mana bu allada shu g‘oya yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,
Uxlab qolsin, alla-yo.
Bo‘lsin inson sarasi,
Obro‘ olsin, alla-yo, alla.

Inson birdaniga yuqori martabali, o‘qimishli, oq-qorani ajrata oladigan bo‘lmaydi. Buning uchun qunt bilan o‘qish, o‘rganish, ilmli bo‘lish kerak. Mana bu alla ham juda jozibali chiqqan:

Ko‘chalarda o‘ynab yursin,
Maktablarda o‘qib yursin.
Mulla-yu, mudarris bo‘lsin,
Martabasi ulug‘ bo‘lsin.

Chaqaloq olamga kelishi bilan dastlab ota-onani taniydi. So‘ng oila a’zolari, jonivorlar, parranda-yu, darrandalar bilan oshno bo‘ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyyot qilishi, parvarishlashi, o‘stirishi, ko‘paytirishi lozim. Shu ma’noda inson ruhiga o‘z kuyi, qo‘sishig‘i bilan quvonch bag‘ishlaydigan qush-bulbulni ham ehtiyyot qilishi zarurligi bir qator allalarning asosini tashkil etadi:

Bulbul sayrar yozina, alla-yo, alla,
Qulluq qush ovozina, alla-yo, alla.
Bermang bulbula ozor, alla-yo, alla,
Bulbul beozor qushdir, alla-yo, alla.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagagi bolalar kitobxonligi asosan oiladan, bolalar bog‘chalaridan, mahalla ertakchilari tomonidan amalga oshiriladi. Yana bir gap. Bu yoshdagagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘ladi. Avval eslatib o‘tganimizdek bu yoshdagagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tabiat, hayvonot olami, do‘stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to‘g‘risida bo‘lishi foydadan holi bo‘lmaydi.

Bu davr bolalariga “Chivinboy”, “Qizg‘anchiq it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Maqtanchoq quyon”, “Rostgo‘y bola”, “Arilar g‘azabi”, “Tulki bilan turna”, “Sholg‘om”, “Qumursqa”, “Kaptar sovg‘asi” kabi ertaklarni o‘qib, hikoya qilib berish mumkin.

Bog‘cha tarbiyachilari, ota-onalar, mahalla ertakchilari oldida turadigan ishlardan eng muhimi kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bu tarbiya bola hayotida alohida o‘rinda turadi. Shuning uchun ham bolani yoshligidan boshlab bir ishga o‘rgatish, kichkina vaqtidanoq unga bir yumish berib, ish qilishga o‘rgatish lozim. Tili chiqib, u erga, bu erga yura boshlagan vaqtida ham bolaga biror ish berish lozim. Unga beriladigan bu ish ahamiyatsiz. Hatto, “ish” nomi berishga loyiq bo‘lmasa ham, undan keladigan foyda zo‘rdir. Chunki bunday yumishlar bolani mehnatni sevishga o‘rgatadi [4].

Bu borada xuddi inson kabi tinib-tinchimas mehnatkash qumursqlar va ular haqida xalq to‘qigan “Qumursqa” ertagini shu yoshdagagi bolalarga o‘qib, hikoya qilib, aytib berish yaxshi samara beradi.

Kichkina bolalar u yoqda tursin, hatto, kattalar ham uncha mensimaydigan qumursqaning ishchanligini, kechasi-yu, kunduzi tinmay mehnat qilishini uni kuzatgan odam sezadi, xolos.

Hayotda shunday: kim ko‘p ishlasa, tinim bilmay mehnat qilsa sog‘ligi yaxshi bo‘ladi, boy-badavlat yashaydi, hech kimga hech qachon xor-zor bo‘lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu oddiyligi, soddaligi, mehnatkashligi bilan ajralib turadi.

Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg‘ir, yer, o‘t, mol, bo‘ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi. Qumursqaning o‘ziga berilgan ta’riflarda ham bu ma’no ko‘zga yaqqol tashlanib turadi:

- Qorning nima uchun katta?
- Jigarim zo‘r, - dedi qumursqa.
- Beling nima uchun ingichka?
- Mehnatim zo‘r!
- Kallang nima uchun katta?
- Davlatim zo‘r! Mehnatim zo‘r, savlatim zo‘r, men zo‘r, men zo‘r!

Bu yoshdagagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to‘g‘ri so‘z, halol, pok bo‘lish, yolg‘on gapirmaslik, birovlarni aldamaslik kabi mazmundagi asarlar tashkil etadi. Masalan, “Rostgo‘y bola” (turkman xalq ertagini) olib ko‘raylik. Ertak qahramoni to‘g‘ri so‘zligi, kattalarning pand-nasihatlariga qulq solishi bilan yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi, ko‘p bolalarning havasini keltiradigan ish qiladi [5].

Bolalar adabiyotidagi folklorizmning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



1. Ertaklar: Ertaklar xalq folklorining eng boy va eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ertaklarda odatda xalqning qadriyatları, axloqiy me'yorlari va hayotiy tajribalari aks etadi. Bolalar adabiyotida folklor unsurlaridan foydalangan holda yangi ertaklar yaratish, yosh avlodni o‘z xalqining an'analarini va madaniyati bilan tanishtiradi. O‘zbekistonning bolalar adabiyotida ham ko‘plab mualliflar folklor elementlarini qo‘llab, yangi ertaklar yaratgan.

2. Misralar va maqollar: Xalq og‘zaki ijodining yana bir muhim elementi bo‘lgan misralar va maqollar bolalar adabiyotida ko‘p ishlatiladi. Bu uslub bolalarga qisqa va aniq axloqiy saboqlarni berish uchun juda qulaydir. Maqollar va misralar o‘zining ifodali va mazmunli shakli bilan bolalarga o‘rnak bo‘ladi.

3. Qahramonlar: Folklor asarlarida ko‘plab qahramonlar mavjud bo‘lib, ular odatda yovuz kuchlarga qarshi kurashadigan yoki xalqni saqlab qoladigan obrazlar sifatida tasvirlanadi. Bolalar adabiyotida bu qahramonlarning obrazi ko‘plab yangi hikoyalari va ertaklarda yangi talqinlar orqali yosh kitobxonlarga taqdim etiladi. Shuningdek, folklor qahramonlari yordamida bolalar adabiyotida milliy qahramonlar, xalq erishgan yutuqlar va g‘alabalar haqida hikoya qilinadi.

4. Xalq qo‘shiqlari va raqslar: Bolalar adabiyotida xalq qo‘shiqlari va raqslarining ishlatilishi nafaqat bolalar estetik didini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularni milliy madaniyat bilan tanishtiradi. Qo‘shiqlar va raqslar orqali bolalar o‘z xalqining tarixiy xotiralarini, urf-odatlарini va bayramlarini o‘rganadilar [6].

Bolalar adabiyotida folklorizmning o‘rni faqat estetik jihatdan emas, balki tarbiyaviy va axloqiy jihatdan ham juda katta. Folklor orqali bolalar odob-axloq, halollik, mardlik, vafodorlilik kabi qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Ayniqsa, folklor asarlarida tasvirlangan o‘ziga xos axloqiy darslar va qahramonlarning muvaffaqiyatlari bolalarni yaxshi xulq-atvorni o‘rganishga undaydi.

1. Axloqiy tarbiya: Bolalar adabiyotida ko‘plab folklor unsurlari bolalarga axloqiy saboqlarni o‘rgatish uchun ishlatiladi. Ertaklarda yoki rivoyatlarda qahramonlar yovuz kuchlarga qarshi kurashadi, ular orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni ajrata olishni, mehnatsevarlik va adolatni qadrlashni o‘rganadilar.

2. Milliy qadriyatlari: Folklor o‘ziga xos milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi. Bolalar adabiyotida folklor unsurlarining qo‘llanilishi, yosh avlodni o‘z milliy madaniyati, tarixiy merosi va urf-odatlari bilan tanishtiradi. Bu, o‘z navbatida, bolalarning etnik va madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi va ularni o‘z xalqi bilan faxrlanishga undaydi.

3. Dunyoqarashni shakllantirish: Bolalar adabiyotida folklor elementlaridan foydalanish, bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Folklor orqali bolalar hayotning turli jahhalari bilan tanishadilar, qahramonlarning hayotiy yo‘llarini kuzatib boradilar va turli xarakterlarni o‘rganadilar [7].

Bugungi kunda bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish yanada zamonaviylashgan. O‘zbek bolalar adabiyotida ham folklor unsurlarini yangicha shakllarda taqdim etish amaliyoti keng tarqalgan. Buning uchun zamonaviy yozuvchilar va shoirlar xalq ertaklari,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



rivoyatlar, maqollar va afsonalarni o‘z asarlarida yangicha talqin etib, bolalar uchun qiziqarli va foydali hikoyalar yaratadilar.

1. Multimedialar va animatsiya: Bugungi kunda bolalar adabiyotida folklorizmni taqdim etishda multimedia texnologiyalari va animatsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Xalq ertaklari va rivoyatlari animatsion filmlar, video o‘yinlar va boshqa interaktiv shakllarda yaratilmoqda, bu esa bolalar uchun yanada qiziqarli va o‘rgatuvchi bo‘ladi.

2. Modernizatsiya: Folklor asarlarining modernizatsiyasi bolalar adabiyotida juda keng tarqalgan. Yozuvchilar xalq ertaklarini yoki rivoyatlarni zamonaviy muammolarni aks ettirgan holda yaratadilar. Masalan, xalq hikoyalariga o‘zgartirishlar kiritilib, ularni hozirgi zamon yoshlariaga moslashtirish mumkin.

3. Krossmedia yondashuvi: Krossmedia yondashuvi yordamida folklor asarlaridan turli media vositalarida foydalanish, masalan, kitoblar, filmlar, komikslar va veb-saytlar orqali amalga oshiriladi. Bu, bolalar uchun an'anaviy folklor materiallarini yangi shaklda va interaktiv tarzda taqdim etadi.

Xulosa. Bolalar adabiyotida folklorizmdan foydalanish, yosh avlodni nafaqat o‘z milliy madaniyatiga, balki umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga ham tanishtirishning samarali vositasidir. Folklor, bolalar adabiyotida estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ularga axloqiy saboqlarni o‘rgatish, milliy identifikatsiyani mustahkamlash va dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy adabiyotda folklorizmni yangi shakllarda taqdim etish orqali, bolalar faqat o‘zining tarixiy va madaniy merosini o‘rganishlari bilan cheklanmay, balki zamonaviy dunyoda bo‘layotgan voqealarga nisbatan tanqidiy fikrlarni ham shakllantiradilar. Shunday qilib, bolalar adabiyotida folklorizmni qo‘llash, yosh avlodni kamol topgan va hamjihatlikda yashashga undashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti, -T.: O‘qituvchi, 2011. - 260 b.
2. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. — Buxoro.: Durdona, 2019.- 420 b.
3. Nusratova H, Pardayev B. Bolalar adabiyoti, — Toshkent.: “Zuhra Baraka”,2021. - 295 b.
4. Nusratova H. Bolalar saodati (Safar Barnoyev ijodi asosida). Toshkent.: Muharrir, 2011, 270 b
5. **Ney, J. (2005).** *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs.
5. **Nye, J. (2008).** *The Power of Culture: A Reconsideration of Folklore and Its Role in Society*. International Journal of Cultural Studies, 11(3), 269-283.
6. **Shukurov, R. (2008).** *Ertaklar va ularning bolalar tarbiyasidagi o‘rni* [Fairy Tales and Their Role in Children’s Education]. Tashkent: O‘zbekistan.
7. **Alimova, D. (2017).** *Folklor unsurlarining zamonaviy adabiyotga ta’siri* [The Influence of Folklore Elements on Contemporary Literature]. Tashkent: Sharq.

